BOLALAR HUQUQLARINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI

Z.S. Israilova
Yuridik fanlari falsafa doktori (PhD),
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasi dotsenti,
O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bolalar huquqlarini ta'minlashning xalqaro-huquqiy mexanizmlarining zamonaviy holati, ularning samaradorligi hamda takomillashtirish istiqbollari tahlil qilingan. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, Universal davriy ko'rib chiqish (UPR) mexanizmi hamda mintaqaviy inson huquqlarini himoya qilish institutlarining faoliyati o'rganilgan. Shuningdek, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalalari, O'zbekiston Respublikasining bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi islohotlari va xalqaro hamkorlikdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot yakunida xalqaro mexanizmlar samaradorligini oshirish hamda milliy huquqiy tizimni xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *bolalar huquqlari, xalqaro huquq, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, UPR, xalqaro mexanizmlar, inson huquqlari, O'zbekiston, xalqaro standartlar, bolalarni himoya qilish.*

Аннотация. *В статье исследуются современное состояние международно-правовых механизмов обеспечения прав ребёнка, их эффективность и перспективы дальнейшего совершенствования. Проанализированы положения Конвенции ООН о правах ребёнка, механизм Универсального периодического обзора (UPR), а также деятельность региональных институтов по защите прав человека. Особое внимание уделено вопросам имплементации международных стандартов в национальное законодательство, реформам Республики Узбекистан в сфере защиты прав детей и её роли в развитии международного сотрудничества. По результатам исследования сформулированы научно-практические предложения, направленные на повышение эффективности международных механизмов защиты прав детей и совершенствование национальной правовой системы.*

Ключевые слова: *права ребёнка, международное право, Конвенция ООН о правах ребёнка, UPR, международные механизмы, права человека, Республика Узбекистан, международные стандарты, защита детей.*

Abstract. *This article examines the current state of international legal mechanisms for the protection of children's rights, assesses their effectiveness, and explores prospects for their further development. The study analyzes the UN Convention on the Rights of the Child, the Universal Periodic Review (UPR) mechanism, and the activities of regional human rights institutions. Particular attention is paid to the implementation of international standards into national legislation, the reforms carried out by the Republic of Uzbekistan in the field of children's rights protection, and its role in international cooperation. Based on the findings, the article proposes practical recommendations aimed at improving the effectiveness of international mechanisms for the protection of children's rights and strengthening the national legal framework in accordance with international standards.*

Keywords: *children's rights, international law, UN Convention on the Rights of the Child, Universal Periodic Review (UPR), international mechanisms, human rights, Republic of Uzbekistan, international standards, child protection.*

Xalqaro huquq tizimida bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash va ushbu sohadagi mexanizmlar samaradorligini oshirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mavjud xalqaro mexanizmlarni takomillashtirish istiqbollari ularning institutsional salohiyatini kuchaytirish, monitoring tizimlarini yanada samarali tashkil etish hamda davlatlarning xalqaro majburiyatlarini to'liq va izchil bajarishini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. So'nggi yillarda bolalar huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish tizimi sezilarli darajada rivojlandi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (UNCRC) bilan bir qatorda, Universal davriy ko'rib chiqish (Universal Periodic Review – UPR) mexanizmi ham davlatlar tomonidan inson huquqlari, jumladan, bolalar huquqlariga oid xalqaro majburiyatlarning bajarilishini monitoring qilishning muhim vositalaridan biriga aylandi. Shunga qaramay, UPR doirasida berilayotgan tavsiyalarning nisbatan kam qismi bevosita bolalar huquqlariga taalluqli bo'lib, bu esa mazkur yo'nalishda bolalarning o'ziga xos manfaatlari va ehtiyojlarini to'liq aks ettiruvchi alohida yondashuvni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Mintaqaviy darajada esa Yevropa Kengashi hamda Afrika Bolalar huquqlari va farovonligi bo'yicha ekspertlar qo'mitasi kabi institutlar bolalar huquqlarini himoya qilishda muhim o'rin egallaydi. Ushbu tuzilmalar o'z faoliyatida tegishli hududlarning ijtimoiy, huquqiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olishi bilan ajralib turadi. Biroq ularning tavsiyalari va qarorlarining aksariyat hollarda majburiy yuridik kuchga ega emasligi amaliy ijro samaradorligini cheklovchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois xalqaro va mintaqaviy monitoring mexanizmlarining huquqiy ta'sirchanligini

kuchaytirish hamda ularning ijrosini ta’minlash bo‘yicha samarali vositalarni rivojlantirish zamonaviy xalqaro huquqning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.Xalqaro mexanizmlarning samarali ishlashiga to‘sqinlik qilayotgan bir qancha muammolar mavjud. Ulardan eng asosiysi — huquqiy normativlarning majburiy kuchga ega emasligidir. BMT Bola huquqlari qo‘mitasining tavsiyalari davlatlar tomonidan ixtiyoriy asosda bajariladi va bu, o‘z navbatida, ularning real amaliyotga ta’sirini cheklaydi. Shu bilan birga, bolalarning o‘z huquqlari haqida ma’lumotga ega emasligi, ya’ni qaror qabul qilish jarayonlarida ularning ishtirok etmasligi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda[1]. Tadqiqotlarga ko‘ra, bolalarning 70 foizga yaqini o‘z huquqlarini to‘liq bilmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa resurslarning notekis taqsimlanishi natijasida bolalar huquqlari dasturlari ikkinchi darajali deb baholanadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Eng avvalo, bolalarning ishtirokini institutsional darajada mustahkamlash zarur. Masalan, bolalar parlamentlari yoki yosh vakillar kengashlari orqali ularning fikr bildirish huquqini amaliyotga tatbiq etish mumkin. Yangi Zelandiyadagi Bolalar Komissari ofisi bunga yaxshi misoldir[2] — bu tizim bolalarning huquqlari bilan bog‘liq muhokamalarda ularning bevosita ishtirokini ta’minlaydi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali bolalar huquqlari buzilishi holatlarini tez aniqlab, ularga zudlik bilan javob berish imkoniyati yaratiladi. Masalan, YUNISEF tomonidan ishlab chiqilgan suniy intelekt orqali ishlaydigan statistik platformalar muhim monitoring vositasi sifatida xizmat qilmoqda.

Xalqaro ekspertlar ham mavjud mexanizmlarning zaif tomonlarini tanqidiy baholamoqda. Huquqshunos Geraldine Van Bueren[3] ta’kidlashicha, bolalar huquqlari mexanizmlarining samaradorligini ta’minlash uchun ular mustahkam huquqiy asos va davlatlarning aniq javobgarligiga tayanmog‘i zarur. Uning fikriga ko‘ra, Konvensiyaning 12-moddasida nazarda tutilgan “bolaning fikrini eshitish” prinsipi faqat deklarativ tusda emas, balki qonunchilikda protsessual mexanizm sifatida aks etishi kerak. Shu bilan birga, Kathy Vandergrift bolalar huquqlarini faqat insonparvarlik masalasi sifatida emas, balki global xavfsizlikning asosiy elementi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Uning fikricha, bolalar huquqlarini himoya qilish — bu kelajakdagi mojarolar oldini olishda eng samarali vositadir[4].

[1] CHALLENGES TO CHILDREN’S RIGHTS TODAY: WHAT DO CHILDREN THINK? (Study prepared by Dr Aoife Daly, Sandy Ruxton and Mieke Schuurman) URL: https://rm.coe.int/1680643ded
[2] New Zealand. Office of the Commissioner for Children.URL https://natlib.govt.nz/records/22397188
[3] Geraldine Van Bueren, The International Law on the Rights of the Child (Fordham International Law Journal) URL: https://ir.lawnet.fordham.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=2235&context=ilj
[4]The Right to Peace (CHILDREN AND ARMED CONFLICT) https://www.worldvision.com.au/docs/default-source/publications/children/the-right-to-peace---children-and-armed-conflict.pdf?sfvrsn=5965ec3c_6&srsltid=AfmBOoq_dyRNqgAuqWj2faGPprXp7WfJkfw2BwoI6_pfm3vLzK7pKqVT

Kelajak uchun ham bir qator amaliy takliflarni ham ilgari surish mumkin. Jumladan, UNCRCga raqamli xavfsizlik, ekologik tahdidlar va transmilliy avlodlar huquqlarini o‘z ichiga oluvchi yangi protokollarni qo‘shish, hisobot berish tizimini majburiylashtirish va ularni bajarmagan davlatlarga iqtisodiy sanksiyalar qo‘llash mumkin. Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan moliyalashtiriladigan bolalar huquqlari bo‘yicha global fond tashkil etish taklifi ham dolzarb — bu fond ta’lim, tibbiyot va zo‘ravonlikning oldini olish dasturlarini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Umuman olganda, xalqaro mexanizmlarning real samaradorligi ularning huquqiy maqomi va amaliy qo‘llanishi o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga bevosita bog‘liq. Bolalar huquqlarini himoya qilish — bu nafaqat yuridik majburiyat, balki kelajak avlodlar uchun barqaror taraqqiyotga investitsiyadir. Van Buerenning ta’biricha, “bolalar huquqlari mexanizmlarini haqiqiy kuchga aylantirish uchun ularning qonuniy asoslari va siyosiy irodasi o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldirish zarur”. Bu jarayonda xalqaro hamjamiyat, milliy hukumatlar va fuqarolik jamiyati vakillari o‘zaro hamkorlikda harakat qilishi zarur.

Bugungi kunda ko‘pgina davlatlar xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan bo‘lsa-da, ularning ichki qonunchilikda amalga oshirilishi yetarlicha kafolatlanmagan. Shu sababli, xalqaro-huquqiy majburiyatlarni milliy qonunchilikka integratsiyalash mexanizmini yanada kuchaytirish zarur. Buning uchun xalqaro ekspertlar va milliy qonunchilik organlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro nazorat mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish istiqbollari ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kundagi mavjud nazorat mexanizmlari ko‘pincha hisobot va tavsiyalar berish bilan cheklanib qolmoqda. Kelgusida bolalar huquqlariga oid xalqaro shartnomalarning ijrosi ustidan nazoratni yanada samaraliroq ta'minlaydigan, masalan, davlatlarga majburiy bo‘lgan tavsiyalar chiqarish yoki jarimalar belgilash mexanizmini kiritish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish zarur. Bu xalqaro mexanizmlarning majburiy ijro etilish xususiyatini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, bolalar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishda muhim istiqbollardan biri nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining rolini oshirish bilan bog‘liqdir. Hozirgi kunda nodavlat tashkilotlar asosan kuzatuvchi va maslahat beruvchi maqomga ega bo‘lib qolmoqda. Kelgusida xalqaro tashkilotlar tomonidan nodavlat tashkilotlarga qaror qabul qilish jarayonida bevosita ishtirok etish, xalqaro hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda va monitoring faoliyatida faolroq rol berilishi mumkin. Bu esa mexanizmlarning faoliyatida demokratik va shaffof tamoyillarni kuchaytiradi.

Bolalar huquqlarini ta'minlash mexanizmlarining istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlaridan yana biri – bu xalqaro huquqiy hujjatlar va mexanizmlarni raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirishdir. Masalan, davlatlar tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarni raqamli shaklda uzluksiz taqdim qilish, xalqaro tashkilotlarning internet-platformalar orqali shikoyatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish imkoniyatlarini rivojlantirish ushbu mexanizmlarning shaffofligi va tezkorligini oshiradi.

Xalqaro huquqda bolalar huquqlarini ta'minlash mexanizmlari rivojlanishi uchun yuqorida keltirilgan yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy qadamlarni amalga oshirish zarur. Bu esa, o‘z navbatida, xalqaro mexanizmlarning samaradorligini oshirib, bolalar huquqlarining ishonchli va har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash imkonini beradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ushbu mexanizmlarning aynay “ishlamasdan” qolishiga yaqqol misol tarisqasida urush va qurolli mojarolar davomida bolalar o‘limi, jiddiy jismoniy va ruhiy shikastlanishlar, bolalarning harbiylashtirilgan guruhlarga jalb qilinishi holatlari ko‘paymoqda. Afsuski, mavjud xalqaro mexanizmlar bunday vaziyatlarda yetarlicha samarali faoliyat ko‘rsatmayapti.

Xalqaro himoya tizimiga qaramay, qurolli nizolar zonasida bolalarning holati juda og‘ir qolmoqda. YUNISEF ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 18 yil ichida bolalarning huquqlari 300 mingdan ortiq holatda buzilgan[5]. Ayniqsa, Myanma kabi davlatlarda qurolli to‘qnashuvlarning kengayishi bolalar huquqlarining buzilishini oshirdi. Bunday huquqlarining buzilishiga bolalarning halok bo‘lishi, bolalar askar sifatida jalb qilinishi, jinsiy zo‘ravonlik, maktab va shifoxonalarga hujumlar, gumanitar yordamdan foydalanish imkoniyatining cheklanishi kabi ko‘plab omillar misol bo‘la oladi.

Bularga sabab qilib samarasizlik deyish ham mumkin. Aynan mexanizmlarning samarasizligi ko‘p hollarda davlatlarning xalqaro majburiyatlarini to‘liq bajarmasligi, nazorat mexanizmlarining sustligi, siyosiy manfaatlar va xalqaro tashkilotlarning ko‘pincha selektiv munosabati bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, moliyaviy resurslarning yetarli emasligi va turli tashkilotlar o‘rtasida muvofiqlashuvning yo‘qligi ham muhim muammolardan biridir.

Misol sifatida Yaqin Sharq va Afrika mintaqasidagi qurolli nizolarni ko‘rsatish mumkin. Bu joylarda bolalar himoyasi uchun yaratilgan mexanizmlarning amalda ishlamayotgani, xalqaro tashkilotlarning tezkor va samarali choralar ko‘ra olmayotgani achinarli holatdir.

[5] More than 300,000 grave violations against children in conflict”(UNICEF report)
URL: https://www.unicef.lu/more-than-300000-grave-violations-against-children-in-conflict-verified-worldwide-in-past-18-years/?_adin=11734293023

Shu asnoda mavjud holatni yaxshilash uchun avvalo xalqaro mexanizmlarni mustahkamlash, davlatlar majburiyatlarini aniq belgilash, xalqaro jinoyat sudlarining vakolatlarini kengaytirish, bolalar uchun xavfsiz zonalar yaratish, ta'lim va psixologik yordamni ta’minlash kerak.

Umuman olganda, bolalar huquqlarini xalqaro himoya qilish mexanizmlarini samarali qilish uchun keng qamrovli yondashuv zarur. Bu bolalarning xavfsizligini ta'minlash uchun huquqiy, amaliy va texnologik vositalarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro hamjamiyat bolalar manfaatlarini ustuvor deb bilib, bu masalada birdam harakat qilishi kerak. Shular qatori, qurolli nizolar vaqtida bolalarni himoya qilish bo‘yicha maxsus tezkor javob beruvchi xalqaro mexanizmlar yaratish lozim. Bu mexanizmlar bolalarning xavfsizligini ta'minlash uchun xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, favqulodda vaziyatlarda bolalarni tezkor evakuatsiya qilish va ularga gumanitar yordam ko‘rsatish bo‘yicha majburiy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Shuningdek, nizolar davrida bolalarga qarshi jinoyatlarni xalqaro sudlarda ko‘rib chiqish jarayonlarini tezlashtirish va samaraliroq amalga oshirish mexanizmlarini yaratish zarur.

Bolalar huquqlarini ta’minlashda xalqaro mexanizmlarning takomillashuvi va istiqbollari xalqaro hamjamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunda mavjud xalqaro huquqiy baza yetarli darajada rivojlangan bo‘lsa-da, uning amaliyotdagi qo‘llanilishi, ayniqsa, qurolli nizolar, ijtimoiy inqirozlar va tabiiy ofatlar sharoitida, ko‘plab cheklov va muammolarga duch kelmoqda. Shu bois mexanizmlarning faqat huquqiy asosini emas, balki ularning ishlash mexanizmini, monitoring, javobgarlik va ta’sir ko‘rsatish vositalarini yanada takomillashtirish zarur.

Shu asnoda aytib o‘tish joizki, xalqaro huquq tizimi bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha uzoq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi, ammo oxirgi yillardagi statistik ma'lumotlar mavjud mexanizmlarning samaradorligida bundan tashqari jiddiy kamchiliklar borligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, qurolli nizolar zonasida bu holatlar yaqqol seziladi.

YUNISEF ma'lumotlariga ko‘ra, 2005-yildan beri dunyoning barcha qit’alarida harbiy harakatlar natijasida kamida 120 ming bola halok bo‘lgan[6]. Bu har kuni o‘rtacha 20 nafar bolaning o‘limini bildiradi. Bundan anglashiladiki, bolalarni himoya qilish bo‘yicha normativ-huquqiy baza rivojlangan bo‘lsa-da, uning amaliy qo‘llanilishi nizolar zonalarida juda samarasiz bo‘lib qolmoqda. Bu esa inqiroz vaziyatlarida bolalar xavfsizligini ta'minlashga yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

[6] “More than 300,000 grave violations against children in conflict”(UNICEF report) URL: https://www.unicef.lu/more-than-300000-grave-violations-against-children-in-conflict-verified-worldwide-in-past-18-years/?_adin=11734293023

Nozik nuqta sifatida, qurolli mojarolar va urushlar zamonaviy dunyodagi eng fojiali inqirozlardan biri bo‘lib, eng avvalo, himoyasiz qatlam — bolalarga eng ko‘p zarar yetkazadi. 2023-yil holatiga ko‘ra, har kuni o‘rtacha 86 nafar bola jiddiy huquqbuzarliklarga duch kelgan, ulardan 31 nafari halok bo‘lgan yoki og‘ir tan jarohatlari olgan[7]. BMTning yillik hisobotlari ushbu fojialarning ko‘lamini aniq aks ettiradi: bir yil ichida 8 mingdan ortiq bola o‘ldirilgan yoki jarohatlangan bo‘lib, ularning aksariyati mina va portlovchi qurilmalar qurboni bo‘lgan[8]. Ayrim hududlarda — xususan, Sudan va Falastinda — mojaro kuchaygani sababli huquqbuzarliklar soni keskin oshgan: Falastinda bunday holatlar soni hatto 170 foizga ko‘tarilgan.

Bunday sharoitda bolalar faqat jismoniy emas, balki ruhiy jihatdan ham chuqur zarar ko‘radi. G‘azo sektoridagi tahlillar bolalarning 96 foizi o‘limni yaqin his qilayotganini, 92 foizi haqiqatni inkor etayotganini va 79 foizi tushkunlik va qo‘rquv holatida yashayotganini ko‘rsatmoqda. Ruhiy travmalarning uzoq muddatli oqibatlari esa ta’lim olish, jamiyatga moslashish va kelajakdagi tinchlik istiqbollariga jiddiy ta’sir qiladi. Lancet jurnalining 2019-yildagi tahliliga ko‘ra, mojaro hududlaridagi aholining 22 foizi ruhiy kasalliklarga duchor bo‘lsa, G‘azodagi bolalar orasida bu ko‘rsatkich deyarli 100 foizga yaqinlashgan[9].

Shunga qaramay, xalqaro darajadagi huquqiy mexanizmlar bu holatlarga yetarli darajada javob bera olmayapti. BMTning Bolalar huquqlari qo‘mitasi yoki maxsus vakilliklari holatlar yuzasidan hisobotlar tayyorlab, tavsiyalar bildiradi, biroq bu tavsiyalarning majburiy kuchga ega emasligi davlatlarning javobgarligini ta’minlashni qiyinlashtiradi. Isroil va Falastin o‘rtasidagi ziddiyat misolida bu aniq ko‘rinadi: maktab va shifoxonalarga uyushtirilgan hujumlar BMT hisobotlarida qayd etilgan bo‘lsada, amaliy jazo choralari ko‘rilmagan. BMTning qurolli mojarolarda bolalarga oid maxsus vakili Virginia Gamba bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, ayniqsa jinsiy ekspluatatsiya holatlari 2023-yilda 25 foizga oshganini alohida qayd etadi[10].

Yechimlar — murakkab, biroq ular hamon mavjud. Avvalo, jinoyatlarni tezkor qayd etish va ularni xalqaro sud organlariga — xususan, Xalqaro jinoiy sudga yetkazish jarayonini kuchaytirish lozim. Kongo Demokratik Respublikasida 2023-yilda bolalarning qurolli guruhlarga jalb qilinishi 3,800 martadan ko‘proq qayd

[7] Save the Children report (2024 31october)
URL: https://www.savethechildren.net/news/world-more-dangerous-ever-children-crimes-conflict-highest-level-2023
[8] UN / CHILDREN AND ARMED CONFLICT REPORT (26 June 2024) URL:https://media.un.org/avlibrary/en/asset/d322/d3227257
[9] War Child.(report 11dec 2024)
URL: https://www.warchild.org.uk/news/war-child-shares-first-study-psychological-impact-war-vulnerable-children-gaza
[10] UN / CHILDREN AND ARMED CONFLICT REPORT (26 June 2024) URL:https://media.un.org/avlibrary/en/asset/d322/d3227257

etilgan[11], biroq ularning faqat 15 foiziga oid ayblovlar rasmiylashtirilgan[12]. Shu bilan birga, YUNISEF tomonidan amalga oshirilayotgan “xavfsiz makonlar” tashabbuslari ruhiy yordam, ta’lim va ijtimoiy integratsiyani o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni ifodaladi. Misol qilib Sudan kabi hududlarda mobil klinikalar orqali minglab bolalarga yordam ko‘rsatilganligini aytish mumkin[13].

Yana bir muhim yo‘nalish bu — portlovchi qurilmalarga qarshi global harakatni kuchaytirishdir. Garchi 2022-yilda Dublin deklaratsiyasi[14] imzolangan bo‘lsa-da, 2023-yilning o‘zida portlovchi qurilmalar 4,300 nafar bolaning o‘limiga sabab bo‘lgan[15]. Mutaxassislar bu borada “aqlli mina” texnologiyalari, bolalar xavfsizligini hisobga olgan infratuzilma va zamonaviy razvedka vositalaridan keng foydalanish lozimligini ta’kidlaydi[16].

Mutaxassislar bu muammoga chuqur e’tibor qaratmoqda. Kathy Vandergrift bu masalani faqat gumanitar doirada emas, balki global xavfsizlik kontekstida ko‘rib chiqish lozimligini ta’kidlaydi: “Urushlarda halok bo‘lgan har bir bola — bu nafaqat bir insonning, balki butun insoniyatning fojiasi”. 1996-yilda Graça Machel tomonidan tayyorlangan BMT hisobotida[17] bu muammo ilk bor keng miqyosda yoritilgan edi, ammo bugunga kelib texnologiyalarning rivojlanishi bilan mojaro qurbonlarining yoshi yana ham kichraymoqda.

Xulosa shuki, bolalarni urushlardan himoya qilish — bu insoniyatning tarixiy majburiyati. Bu borada xalqaro huquqni real kuchga aylantirish, jumladan, BMT Xavfsizlik Kengashining veto huquqini cheklovchi mexanizmlarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, psixologik yordam dasturlariga ajratiladigan mablag‘ hajmini kamida ikki baravar oshirish lozim, chunki hozirda YUNISEF byudjetining atigi 3 foizi ushbu soha uchun ajratilgan[18]. Yana bir istiqbolli yo‘l deb bolalarning huquqbuzarliklarni xabar berishlari uchun anonim, xavfsiz va ishonchli raqamli platformalarni — masalan, blockchain asosidagi anonim hisobot tizimini yaratish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

---

[11] Save the Children report (2024 31october)
URL: https://www.savethechildren.net/news/world-more-dangerous-ever-children-crimes-conflict-highest-level-2023)
[12] Annual Report of the UN Secretary-General on Children and Armed Conflict (Monday, 11 July 2022)
URL: https://childrenandarmedconflict.un.org/2022/07/statistics-should-never-overshadow-the-individual-suffering-of-children-in-armed-conflict-we-must-redouble-efforts-to-end-grave-violations/
[13] Children in War and Conflict (UNICEF REPORT) URL: https://www.unicefusa.org/what-unicef-does/emergency-response/conflict
[14] Political Declaration on Strengthening the Protection of Civilians from the Humanitarian Consequences Arising from the Use of Explosive Weapons in Populated Areas URL:https://ewipa.org/the-political-declaration
[15] Save the Children report (2024 31october)
URL: https://www.savethechildren.net/news/world-more-dangerous-ever-children-crimes-conflict-highest-level-2023)
[16] Change is possible. UNICEF calls for action to protect children in war (UNICEF CALL)
URL: https://www.unicef.org/children-under-attack/change-agenda
[17] Graça Machel and the Impact of Armed Conflict on Children (UN report 1996)
URL: https://childrenandarmedconflict.un.org/about/the-mandate/mandate/the-machel-reports/
[18] UNICEF report 2021. URL: https://www.unicef.org/reports/state-worlds-children-2021

Qisqacha aytganda, bolalarning urushlarda azob chekishi insoniyat uchun eng og‘ir va kechirilmas sahifadir. Bu fojialarning oldini olish — faqat siyosiy rahbarlarning emas, balki har bir insonning shaxsiy mas’uliyatidir.

O‘zbekiston Respublikasi ham bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda va bu borada o‘zining yuksak xalqaro majburiyatlariga sodiqligini ko‘rsatmoqda. Mamlakatda 1992-yilda BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qilinganidan so‘ng[19], bolalar huquqlari sohasida yirik qonuniy va institutsional o‘zgarishlar amalga oshirilgan. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 78-moddasida[20] bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekanligi belgilab qo‘yilgan. Bu davlat tomonidan bolalar huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan qonuniy islohotlar va harakatlarning asosiy tamoyilidir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bolalar huquqlarini himoya qilishda faolligini yanada oshirgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22-apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4296-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rinbosari — Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi joriy etildi [21]. Ushbu institut bolalar huquqlarini himoya qilishni yanada samarali va mustaqil tarzda amalga oshirishga imkon yaratdi. 2024-yilda esa “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari bo‘yicha ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi[22].Bu qonun mamlakatda bolalar uchun ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan edi. 2024-2034-yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiya doirasida esa bolalarning sud jarayonlarida ishtirokini kengaytirish, 10 yoshgacha bo‘lgan bolalarning sud jarayonlarida ishtirokini monitoring qilish va xalqaro tajribalarni o‘rganish kabi chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan[23].

Xalqaro miqyosda bolalar huquqlari himoyasi BMT Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi asosida amalga oshiriladi. 1989-yilda qabul qilingan ushbu Konvensiya bolalarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi universal hujjat bo‘lib, 196

[19] Bolalar huquqlari to’g’risidagi konvensiya https://lex.uz/docs/-2595913
[20] O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
URL: file:///C:/Users/Windows%2010/Downloads/uploads_constitution_oz.pdf
[21]O‘zbekiston Respublikasining “Bolalar ombudsmani to‘g‘risida”gi Qonunini qabul qilish zarurligi to‘g‘risida(maqola) https://ombudsman.uz/oz/docs/ozbekiston-respublikasining-bolalar-ombudsmani-togrisidagi-qonunini-qabul-qilish-zarurligi-togrisida
[22] “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari bo‘yicha ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risidagi” qonun URL: https://lex.uz/uz/docs/-7283077
[23] 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiya.URL: https://lex.uz/docs/-6848811

davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiyaning 19-moddasi bolalarni jismoniy va ruhiy zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishni talab qiladi[24]. Biroq, YUNISEF ma'lumotlariga ko‘ra, har yili 1 milliardga yaqin bola turli shakldagi zo‘ravonlikka duchor bo‘lmoqda. Bunday holatlarning oldini olish va bolalarni himoya qilish uchun O‘zbekiston BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda turli loyihalar va dasturlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekistonda bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha so‘nggi yillarda amalga oshirilgan yangiliklardan biri 2025-yilda e’lon qilingan Bolalar saratoniga qarshi kurashish milliy strategiyasidir. "Bolalar saratoni endi oilalar yolg‘iz o‘zi kurashayotgan muammo emas, bu milliy ustuvorlikka aylandi," - deya ta’kidladi O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri Asilbek Xudayorov. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi 2030-yilga kelib saraton kasalligidan o‘lim darajasini 2,5 baravar kamaytirish va yashovchanlik ko‘rsatkichini 60%ga oshirishdan iborat. Bu borada JSST, YUNISEF va Vena xalqaro tibbiyot universiteti bilan hamkorlikda multidissiplinar yondashuv joriy etilmoqda. Bu borada JSSTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari doktor Ashina Xalakdina shunday dedi: "Bolalar saratoni bo‘yicha milliy strategiyani - aniq maqsadlar, aniq chora-tadbirlar va imkon qadar ko‘proq bolalar hayotini saqlab qolish uchun zarur resurslarni o‘z ichiga olgan hujjatni ishlab chiqish O‘zbekiston uchun muhim qadamdir. Shuningdek, O‘zbekistonda 10 ta yangi onkologik markaz ochish, 500 ga yaqin mutaxassisni malakasini oshirish va ilg‘or diagnostika usullarini joriy etish rejalashtirilgan. 2025-yil 15-maydagi yig‘ilishda BMT vakillari strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida xalqaro tajriba va hamkorlikning ahamiyatini ta'kidladilar[25].

Bolalar huquqlari bo‘yicha so‘nggi yillarda amalga oshirilgan qonunchilik islohotlari va tashkiliy o‘zgarishlar O‘zbekistonning xalqaro huquqiy majburiyatlarga to‘liq mos kelishini ta'minlaydi. 2024-yil mart oyida Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari assambleyasida bolalarni kiberzo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha qo‘shma deklaratsiya qabul qilindi. Bu, shubhasiz, O‘zbekistonning mintaqaviy hamkorlikda bolalar huquqlarini himoya qilishdagi yetakchilik pozitsiyasini yana bir bor tasdiqlaydi. Mamlakatimiz YUNISEF, JSST va BMT Taraqqiyot dasturi bilan amalga oshirgan 80 dan ortiq loyihalar bolalar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, 2022-yil 25-avgustda Toshkentda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada

[24] Bolalar huquqlari to’g’risida konvensiya. URL:https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child
[25] O‘zbekiston 2025-2030-yillarga mo‘ljallangan Bolalar saratoniga qarshi kurashish milliy strategiyasi (Sog’liqni saqlash vazirligi)
URL: https://gov.uz/oz/ssv/news/view/54621

bolalar uchun odil sudlov tamoyillari va fuqarolik ishlarida bolalarning ovoz berish huquqini kengaytirish muhokama qilindi[26].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida izchil islohotlar o‘tkazmoqda. Xalqaro hamkorlik, qonunchilik islohotlari va bolalar huquqlarini himoya qilish tizimining takomillashuvi O‘zbekistonning bolalar huquqlarini ta'minlashdagi muvaffaqiyatlarini yanada oshiradi. Biroq, bolalar huquqlarini himoya qilish jarayoni davom etmoqda va bunda jamiyatning har bir a'zosi, shu jumladan ota-onalar, davlat va xalqaro tashkilotlardan yaxlit va birdamlik asnosida sa'y-harakatlar talab etiladi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Status of Children's Rights in the UPR. URL: https://archive.crin.org/en/home/what-we-do/research/status-childrens-rights-upr.html
2. The Child Rights International Network (CRIN) published 2008 (updated 2015) https://home.crin.org/regional-mechanisms
3. CHALLENGES TO CHILDREN’S RIGHTS TODAY: WHAT DO CHILDREN THINK? (Study prepared by Dr Aoife Daly, Sandy Ruxton and Mieke Schuurman) URL: https://rm.coe.int/1680643ded
4. UN / CHILDREN AND ARMED CONFLICT REPORT (26 June 2024) URL:https://media.un.org/avlibrary/en/asset/d322/d3227257
5. URL: https://www.warchild.org.uk/news/war-child-shares-first-study-psychological-impact-war-vulnerable-children-gaza
6. Political Declaration on Strengthening the Protection of Civilians from the Humanitarian Consequences Arising from the Use of Explosive Weapons in Populated Areas URL:https://ewipa.org/the-political-declaration
7. URL: https://www.savethechildren.net/news/world-more-dangerous-ever-children-crimes-conflict-highest-level-2023

[26] Bolalar uchun odil sudlovni takomillashtirish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba.(NHRC.uz) URL: http://nhrc.uz/oz/news/m8514